



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> April, 2025

## **ADABIY MATNLAR ORQALI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH**

Mamashoyev Umid Ulug‘bek o‘g‘li

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti assistent o‘qituvchisi

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada adabiy matnlarning o‘quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishdagi roli yoritilgan. Muallif tomonidan adabiyot darslarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, yoshlarning fikrlash va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini rivojlantirishda badiiy matnlardan samarali foydalanish metodlari bayon etilgan. Xususan, o‘quvchilarni asar matni asosida izchil fikrlashga, savollarga javob berish orqali matn mazmunini chuqurroq anglashga undash metodikasi tahlil qilingan. Maqolada adabiy tarbiyaning yoshlar ma’naviyatini shakllantirishdagi o‘rni va o‘qituvchining bu boradagi vazifalari keng yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Adabiy matn, kommunikativ kompetensiya, adabiyot darsi, milliy qadriyat, o‘quvchi tafakkuri, metodika, tarbiya, savol-javob usuli, matnli ishlash.

### **Аннотация**

В статье рассматривается роль художественных текстов в развитии коммуникативной компетентности учащихся. Автор описывает методы эффективного использования художественных текстов для привития национальных и общечеловеческих ценностей на уроках литературы, развития мышления и коммуникативных навыков у молодежи. В частности, была проанализирована методика побуждения учащихся к последовательному мышлению на основе текста произведения и более глубокому пониманию содержания текста путем ответов на вопросы. В статье подробно рассматривается роль литературного образования в формировании духовности молодежи и обязанности учителя в этом отношении.



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> April, 2025

**Ключевые слова:** Художественный текст, коммуникативная компетентность, урок литературы, национальная ценность, мышление учащихся, методика, обучение, вопросно-ответный метод, текстовая работа.

## **Annotation**

This article highlights the role of literary texts in the formation of communicative competence in students. The author describes the methods of effective use of literary texts in literature lessons to instill national and universal values, develop young people's thinking and communication skills. In particular, the methodology of encouraging students to think consistently based on the text of the work and to understand the content of the text more deeply by answering questions is analyzed. The article extensively covers the role of literary education in the formation of youth spirituality and the tasks of the teacher in this regard.

**Keywords.** Literary text, communicative competence, literature lesson, national value, student thinking, methodology, education, question-and-answer method, textual work.

## **Kirish**

XXI asr texnologiya asri bo‘lib, hozirgi kunda ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar ongiga salbiy ta‘sir etadigan, ularning ma‘naviy dunyoqarashini pasaytiradigan dasturlar soni ortib bormoqda. Kelajagimiz egalari bo‘lgan yosh avlodni ham ma‘nan, ham jismonan sog‘lom, ajdodlarimizga munosib qilib tarbiyalash ta‘lim tizimi oldida turgan muhim masaladir. Mamlakatimiz prezidenti Sh.M. Mirziyoyev qator asarlari va ma‘ruzalarida yosh avlod tarbiyasi masalasiga a‘lovida e‘tibor qaratib, ularni milliy pedagogik qadriyatlar asosida tarbiyalash, nazariy bilimlarni Sharq mutafakkirlarining ilmiy-ma‘rifiy ijodiyotiga oid g‘oyalari, pand-nasihatlari va o‘gitlari asosida madaniyatli, ma‘naviyatli qilib shakllantirish lozimligini uqtiradi. Jumladan, Prezident raisligida ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida quyidagi fikrlarni aytib o‘tdi: —Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> April, 2025

va ruhi ma‘naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi- bozor tramoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi- ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma‘naviyat. Xalqimiz orasida bilimsizlik, saviyasizlikni yo‘qotish, mamalakatimizni dunyo miqyosida rivojlangan davlatlar safiga qo‘sishda milliy mafkuraning orni beqiyos. Shu bois Prezident mamlakatimiz mafkurasining asosiy g‘oyasini ta‘kidlab otdi: Biz yashayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan,- deydi Sh. Mirziyoyev.

## **Metodlar va usullar**

O‘quvchilarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish, avvalo, oiladan, qolaversa maktabdan ta‘lim-tarbiya mushtarakligida boshlanadi. Adabiyot darslari bu jarayonni aniq dastur asosida amalga oshiradi. Adabiyot o‘quv dasturida berilgan nasriy va lirik asarlar mazmun-mohiyati bilan barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan.

O‘qituvchi milliy qadriyatlarmiz va an‘analarimizni e‘zozlash bilan barobar boshqa xalqlarning qadriyatlarini ham hurmat qilishga o‘quvchilarni o‘rgatishi zarur. Zero, tinchlik, yaxshi qo‘schnichilik, har tomonlama hamkorlik, o‘zaro ishonch nafaqat millatlar o‘rtasidagi barqaror osoyishta hayotni, balki ko‘pgina ijtimoiy vazifalarni ham hal etishda ustuvor ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda milliy va umuminsoniy qadriyatlар asosida shakllangan milliy ta‘lim tizimimizning rivojlangan mamlakatlar ta‘lim tizimini mamlakatimizda joriy qilishdan asosiy maqsad ham kelajak avlodni milliy qadriyatlarmizdan ajralmagan holda har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalashdan iborat. Bu borada mutaxassislar tomonidan yangi dastur va darsliklar ishlab chiqildi va amaliyotga joriy qilindi. Metodik qo‘llanmalar yaratildi.

Badiiy asar matni ustidagi ishni o‘qituvchi asarni, avvalo, o‘zi o‘qib berishi yoki audio matndan foydalanishi maqsadga muvofiq. Bunda o‘quvchining diqqati asar voqealari rivojiga qaratiladi va asar mazmunini yanada chuqr anglashiga yordam



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> April, 2025

beradi. So‘ngra o‘quvchilar navbat bilan o‘qishlari yoki uyda mustaqil o‘qib kelishlari ham mumkin.

## Natijalar

Hazrati inson romanidan berilgan parchani o‘rganishda asarning umumiy mazmuni va g‘oyasini o‘qituvchi o‘quvchilarga singdiradi. Bunda II jahon urushi voqealari va uning mudhish oqibatlari haqida so‘z boradi va asar qahramonlari Vitya, Galya, Abram singari urushda yetim qolgan bolalar taqdiriga beparvo bo‘lmay, ularni o‘z tarbiyasiga olgan Mahkam aka kabi oqko‘ngil va oliyjanob insonlar hayoti, qolaversa xalqimiz qoniga singib ketgan insonparvarlik, bag‘rikenglik tushunchalari to‘g‘risida ma‘lumot beriladi. Asarni o‘qish davomida darslikda berilgan quyidagi savollarga o‘quvchilar javob berishlari kerak bo‘ladi:

1. Mahkam aka bolalar uyiga nima maqsadda keldi? Nima uchun bu yerga kelganda Vityaning kayfiyati o‘zgardi?
2. Ayol va Mahkam akaning suhbatidan nimalarni uqdingiz? Nima uchun Mahkam akaning a‘zoyi badani titrab ketdi?
3. Vityaning dadam bor deb maqtanishi nima uchun bolalarga yoqmadidi?
4. Mahkam aka:||Odamdan odamning farqi bor||, - deganda nimani nazarda tutgan edi? Mahkam akadan qanday bola olmoqchiliginin so‘ragan ayol bilan Nazarova o‘rtasida qanday farqlarni angladingiz?
5. Nega Mahkam aka Galya bilan Abramni ham o‘z qaramog‘iga olmoqchi bo‘ldi? Vityaga bu nima uchun yoqmadidi?

Ushbu savollar o‘quvchilarni asar matniga takror-takror murojaat qilishga undaydi. O‘quvchilarni tafakkur qilishga undaydi. Bundan tashqari darslikda berilgan parchada o‘quvchilar uchun tushunarsiz bo‘lgan yoki o‘quvchilarni yoshidan kelib chiqib ular uchun yangi bo‘lgan so‘zlar izohi berilgan. Asar matni bilan ishslash bu so‘zlarda lug‘at sifatida foydalanish o‘qituvchiga yordam beradi:

Davlatimiz tomonidan ta‘lim sohasiga katta e‘tibor qaratilayotgani beziz emas. Zero, yurtimizning ertasi, ravnaqi aynan yoshlari qo‘lidadir. Shu sababli bugun ta‘lim sohasida mehnat qilayotgan pedagog hodimlarga juda katta talab qo‘yilmoqdaki, zamonaviy pedagog o‘quvchidan hamisha oldinda bo‘lishi, zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalana olishi va bir necha mutaxassislik fanlaridan



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> April, 2025

chuqur bilimga ega bo‘lishi hamda bir necha tillarni mukammal bilishi talab qilinmoqda. Bu islohotlar, o‘zgarishlar zamirida faqatgina yosh avlodni ma’nан yetuk shaxs sifatida tarbiyalash, jamiyatni har tomonlama rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Ana shu maqsadni amalga oshirishda adabiyot fani o‘qituvchilaridan katta fidoyilik talab qilinadi. Kelajagimiz egalari o‘z milliy qadriyatlarini to‘liq anglab yetishi, boshqa xalqlar qadriyatlariga ham chuqur hurmat ko‘rsata olishi, insoniylikning oliy sifatlarini o‘zida mujassam etishida adabiyot fani va adabiyot muallimining o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

## Xulosa

Adabiyot darslarida adabiy matnlar bilan ishlash orqali o‘quvchilarda nafaqat til madaniyati, balki mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish, o‘z fikrini asoslash va boshqalarning fikrini hurmat qilish ko‘nikmalari rivojlanadi. Bu esa kommunikativ kompetensiyaning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Muallif ta’kidlaganidek, badiiy matnlar orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish o‘quvchilarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashning eng samarali vositalaridandir. Ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlar jarayonida adabiyot fani va o‘qituvchisining roli yanada kuchayib borayotganligi, bu esa yuqori malakali, zamonaviy yondashuvga ega pedagoglarni tayyorlash zaruratini yuzaga keltiradi.

## Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Sh.M.Mirziyoyev. Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar ta‘sirchanligini yanada oshirishga qaratilgan vazifalar muhokamasiga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishidagi nutqi. <https://www.gazeta.uz>, 2021-yil, 19-yanvar.
2. Qunduzxon Husanboyeva, Roza Niyozmetova. Adabiyot o‘qitish metodikasi. O‘quv qo‘llanma. T.: 2018.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. —O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi|| Davlat ilmiy nashriyoti, T.- 2006-2008.
4. Mamashoev, U. U. (2023). EXPRESSION OF THE RELATIONSHIP BETWEEN LANGUAGE AND CULTURE IN PHRASEOLOGY WITH THE



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> April, 2025

HEART COMPONENT. In Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования (pp. 76-80).

5. Umid Ulug'bek o'g, M. (2025, March). TIL O'RGANISHDA ADABIYOTNING O'RNI. In International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (pp. 64-71).
6. Umid Ulug'bek o'g, M. (2025, March). XORIJIY VA MILLIY BADIY ASARLARNING TIL O 'RGATISHDAGI DIDAKTIK AHAMIYATI. In International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (pp. 56-63).
7. Komilovich, S. S. (2024). QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA ADABIY TA'SIR MASALALARI. In Konferensiyalar| Conferences (Vol. 1, No. 4, pp. 492-495).
8. Komilovich, SS (2023). TOG 'AY MUROD IJODIDA UILYAM FOLKNER ASARLARI TA'SIRI. Integratsiyalashgan ta'lim va tadqiqot jurnali , 7 (1), 75-77.
9. SHERQULOV, S. TRAGEDY IN WILLIAM FAULKNER'S "THE SOUND AND THE FURY". O 'ZBEKİSTON MILLIY UNIVERSİTETİ XABARLARI, 2022,[1/3 ISSN 2181-7324].
10. Хамзаева, З. (2025). Толкование женского образа в романе «Бону» с точки зрения декадентства: социальный кризис и противоречие ценностей. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 3(2), 17-22.
11. NO, P. The depiction of the new-historical era in Iqbol Mirzo's novel Bonu.
12. Rustamovna, R. I. (2025, January). BOSHLANG 'ICH MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI RIVOJLANTIRISH VA TARBIYALASHDA MEDIANING O 'RNI. In International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices (pp. 225-230).
13. Rustamovna, R. I. (2025, January). MAKTABGACHA TA'LIM: BOLANING KELAJAGI VA TARBIYASI UCHUN MUHIM JARAYON. In International Conference on Multidisciplinary Sciences and Educational Practices (pp. 217-224).
14. Abdumannonovna, A. D. (2025, March). "MARJONLAR O'YINI" ROMANIDA G'ARB VA SHARQ TAFAKKURINING SINTEZI. In International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (pp. 80-87).



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> April, 2025

15. Abdumannonovna, A. D. (2025, March). HERMANN HESSE IJODIDA ROMANTIZM. In International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences (pp. 72-79).
16. Normurodovna, A. M. (2025, February). TASHKIOTLAR O'RTASIDAGI HAMKORLIKDA INGLIZ TILINING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 310-317).
17. Ergashevna, S. M. (2025, February). INGLIZ TILI MUTAXASSISI BO'LISHDA BOSHLANG'ICH INGLIZ TILI DARSLARINING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 350-357).
18. Axmedovna, B. S. (2025, February). O'ZBEKİSTONDA XORİJIY TILLARNING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 326-333).
19. Normurodovna, A. M. (2025, February). INGLIZ TILI GRAMMATIKASINING INGLIZ TILI KURSIDAGI AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 302-309).
20. Ergashevna, S. M. (2025, February). INGLIZ TILI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA XORİJIY TAJRIBALAR DAN FOYDALANISH. In International Educators Conference (pp. 358-365).
21. Axmedovna, B. S. (2025, February). INGLIZ TILINI O'RGANISHDA O'ZARO MULOQOTNING AHAMIYATI. In International Educators Conference (pp. 318-325).
22. Boymurotovna, X. N. (2025, March). RUS TILINI O 'RGANISHDA SUN'İY INTELLEKT VA NEYRON TARMOQLARNING ROLI. In International Conference on Educational Discoveries and Humanities (pp. 55-62).
23. Boymurotovna, X. N., Asror o'g'li, A. O., & Rajabboyevna, O. K. (2025, March). KOMPYUTER VA ROBOTLAR BILAN O'ZARO ALOQA ORQALI IJTIMOIY PSIXOLOGIYANING O'ZGARISHI. In International Conference on Educational Discoveries and Humanities (pp. 63-70).
24. Xidirova, N. B. qizi Nomozova, FA (2024). RAQAMLI MATERIALLAR VA INTERAKTIV PLATFОРMALAR YORDAMIDA TABIIY FANLARNI O 'QITISH. GOLDEN BRAIN, 2(20), 162-166.



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> April, 2025

25. Xidirova, N. B. qizi Muqimova, GZ (2024). EXCELEDA DIAGRAMMALAR BILAN ISHLASH. GOLDEN BRAIN, 2(20), 167-171.
26. Xidirova, N. B. qizi Oromova, SS, & Otajonova, KR (2024). MULTIMEDIALI TEXNOLOGIYALAR VA ULARNING PSIXOLOGIYADA QO 'LLANILISHI. GOLDEN BRAIN, 2(20), 157-161.
27. Botirovich, X. S. Murodullo o 'g, JOT, & Iskandar o 'g 'li, SB (2024). PYTHON DASTURLASH TILINING KELIB CHIQISHI. Modern education and development, 11(3), 120-126.
28. Sunatov, J. R. (2023, December). TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O 'RNI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions" (Vol. 1, No. 01).
29. Botirovich, X. S. Murodullo o 'g, JOT, & Akbar o 'g 'li, SR (2024). INTERNET VA "KUMUSH ASR" YANGI IMKONIYATLAR VA ISTIQBOLLAR. Modern education and development, 11(3), 127-132.
30. Khayriddinov, S. (2023). Cloud technologies as a tool for forming personal information educational environment. International Bulletin of Engineering and Technology, 3(4), 72-76.
31. Хайриддинов, Ш. Б. (2024). ФИЛОСОФСКИЕ И ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ. Экономика и социум, (2-2 (117)), 669-672.
32. Qodirov, F. T., & Zoxidov, J. B. (2020). Development Of An Automatic Ventilation System For Smart Greenhouses. In Инновации в технологиях и образовании (pp. 19-21).
33. Suvonov, B. I. (2023). INFORMATION AND COMMUNICATION SYSTEMS FOR TECHNOLOGICAL PROCESS MANAGEMENT: A COMPREHENSIVE REVIEW. Экономика и социум, (11 (114)-2), 440-443.
34. Botirovich, X. S. Iskandar o 'g 'li, SB (2024). PERFORM ADDITION AND MULTIPLICATION OPERATIONS IN EXCEL. GOLDEN BRAIN, 2(16), 42-46.



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> April, 2025

- 
35. Кучаров, Т., & Маматова, Г. (2024). ВЛИЯНИЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ПРОЦЕССЫ В ОБЩЕСТВЕ. *Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari*, 4(4), 127-136.
  36. Abdirakhimova, M. N. (2021). PREPARING STUDENTS FOR REAL COMMUNICATION. In НАУКА И ОБРАЗОВАНИЕ: СОХРАНЯЯ ПРОШЛОЕ, СОЗДАЁМ БУДУЩЕЕ (pp. 66-68).
  37. Abdirakhimova, M. N. (2022). LITERATURE AND READING AMONG YOUNG PEOPLE IMPROVING CULTURE AND ITS CHARACTERISTICS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(2), 759-763.
  38. Normurodovna, A. M. (2023). ESSENTIALS FOR SUCCESSFUL ENGLISH LANGUAGE TEACHING. *International Journal of Pedagogics*, 3(06), 42-47.
  39. Mustofokulov, J., Suyarova, M., Choriev, S., & Ashurova, K. (2023). Methods for designing electronic device circuits in the» Proteus” program. *Экономика и социум*, (4-1 (107)), 189-193.
  40. Suyarova, M. E., & Zulfiqorova, Z. A. (2019). TEXT ANALYSIS IN TECHNICAL ENGLISH. *Theoretical & Applied Science*, (5), 126-128.